

**QUYMA TEMIRBETON ROM ELEMENTLARIGA HARORAT VANAMLIK  
TA'SIRINI HISOBGA OLGAN HOLDA HISOBLASH USULLARINING HOZIRGI  
HOLATI**

*Rajabov Yorqinbek Sayfiddin o‘g‘li  
Jizzax politexnika instituti,  
“BvalQ” kafedrasi, assistenti*

*Rahmonov Navruzbek Ergashevich,  
Jizzax politexnika instituti,  
“BvalQ” kafedrasi, assistenti  
Ummatkulova Sevara Abdutalip qizi  
Jizzax politexnika instituti,  
“BvalQ” kafedrasi, magstri*

**Annotatsiya:** Oldimizga qo‘yilayotgan bu ishning maqsadi, kompyuter texnikasiga mo‘ljallangan hisoblash algoritmi va temirbetonning quruq – issiq iqlim shoroitida kuchlanganlik – deformatsiya holatini baholovchi dasturlar yaratish, hamda sonli misollarni nazariy taxlil qilishdir.

**Kalit so‘zları:** sinchli binolar, rigellar, loyihalash, vertikal yuklar, issiq harorat, quruq havo, diafragma.

Ko‘p qavatli sinchli binolarga yengil sanoat (asbobsozlik, kime, oziq- ovqat, to‘qimachalik va boshqa) korxonalari, muzxonalari, omborlar, garajlar, shuningdek mehmonxonalar, davolash muassasalari kabilar joylashtiriladi.

Ko‘p qavatli sinchli binolar ko‘ndalang ramalar majmuasidan tashkiltopib, ular bir – biri bilan qavatlararo epmalar erdamida biriktiriladi. Yompalar to‘sini eki to‘sinsiz bo‘lishi mumkin(1-rasm). To‘sinsiz epmalarda ustun qoshi bilan puxta biriktirilgan temirbeton plita rigelvazifasini o‘taydi. Vertikal yuklar barcha hollarda ko‘ndalang ramalargauzatiladi. Gorizontal yuklarni qabul qilishiga qarab, karkasli binolar ramali, rama – bog‘lagichli va bog‘lagichli sistemalarga bo‘linadi.

Ramali sistema. Sinchning ramali sistemasida yukni ustun va rigellarqabul qiladi. Rigellar ustunlarga bikr biriktiriladi, natijada fazoviy sistema hosil bo‘ladi. Qavatlar soni ortishi bilan shamol kuchi ta’sirida pastki qavat ustun va rigellarida vujudga keladigan eguvchi momentlar ham ortib boradi, bu esa ustun va rigellar kesimini kattalashtirishni talab etadi. Bu hol bino konstruksiyalarini bixillashtirishni (unifikatsiya)qiyinlashtiradi, shuning uchun ramali sistemalar 8 qavatdan baland bo‘lgan binolarda qo‘llanilmaydi.

Ramali sistemalarda gorizontal yuklarni to‘laligicha ko‘ndalang ramalar qabul qiladi, shuning uchun ular ana shu kuchlar ta’siriga hisoblanadi.

Rama – bog‘lovchili sistema. Balandligi 8 qavatdan ortiq bo‘lgan binolarda gorizontal yuklarni bikr tugunli ramalar va vertikal joylashgan bikrlik elementlari, vertikal yuklarni esa ramalar va qisman bikrlik elementlari qabul qiladi. Bunday elementlar sifatida odatda temirbeton devorlar – diafragmalar eki metalldan ishlangan bog‘lagichlar qo‘llaniladi.




LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY



Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**





**1– rasm. To’sinsimon yopmali ko‘p qavatli rama – sinchli bino.**

Loyihalash tajribasining ko‘rsatishicha rama – bog‘lagichli sistemalardagi vertikal diafragmalar gorizontal kuchlarning 80...90 % ini, agar biroz kuchaytirilsa, 100 % ini o‘ziga qabul qila olar ekan. Rama – bog‘lagichli sistemalarda gorizontal kuchlar tashqi devorlar orqali qavatlararo epmalarga uzatiladi. Yopmalar gorizontal diafragma sifatida ishlab, bosimni vertikal diafragmalarga uzatadi. Vertikal diafragmalar gorizontal kuchlar ta’sirida, poydevorga mahkamlangan konsol singari ishlaydi. Vertikal diafragmalarning bikrligi kamroq bo‘lsa, gorizontal kuchlarning bir qismini ko‘ndalang ramalar qabul qiladi. Rama – bog‘lagichli sistemalarni seysmik hududlarda keng qo‘llash tavsija etiladi.


Bog‘lagichli sistema, Bunday sistemada vertikal yuklarni ramalar vaqisman diafragmalar qabul qiladi. Rigel bilan ustunning tutashuvi tuguni kichik qiymatli momenti qabul qila oladigan qilib ishlanadi.

Momentlar qiymatining doimiyligi birikishi tugunlari va ustun hamda rigellarni bixillashtirish imkonini beradi. So‘ngi paytlarda metallni tejash imkoniyatini beradigan sharnirli tugunlar yaratilib, amalietga tatbiq etilmoqda. Yig‘ma temirbeton elementlaridan tiklanadigan turar – joy va jamoat binolarida bog‘lagichli sistemalar kengqo‘llaniladi.

To‘liq bo‘lmagan sinchli binolarni ham bog‘lagichli sistemalarga kirlitsabo‘ladi. Bularda yuk ko‘taruvchi bo‘ylama va ko‘ndalang devorlar vertikal diafragma rolini o‘ynaydi. Ustun va rigellardan tashkil topgan ichki sinchlар devorlarga tayanib, faqat vertikal yuklarni qabul qiladi.

Umuman olganda, ustun va rigellarning ularish tugunlari bikr va sharnirli bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha rigellarni o‘rnatish maqsadida ustunlardan kichik konsollar chiqarib qoldiriladi. Agar, me’moriy jihatdan konsollarning chiqib turishi maqsadga muvofiq bo‘lmasa (masalan, fuqaro binolarida), u holda konsolli rigel balandligida qilib, o‘rnatish

uchun rigelda kemtik qoldiriladi. 3 – rasmida ustun bilan rigelling ulanish tugunlari tasvirlangan. Rigellar o‘zaro va ustunlar bilan qo‘yilma detallarni payvandlash orqali biriktiriladi.



**2– rasm. Ustun va rigellarning birikishi.**


1.- ustun; 2 – rigel; 3- qovurg‘ali plitalar; 4 – ustuning qo‘yilma datallari; 5 – uchlik qoplama; 6 – mantaj shtiri va burchaklik; 7 - yaxlitlash betoni; 8 –payvand.

Hozirgi davrda quruq – issiq iqlim sharoitida bino va inshootlar qurilishida yig‘ma va quyma temirbeton konstruksiyalaridan keng foydanilmoqda.

Loyihalash va qurilish ishlari me’erida olib borilishi uchun konstruksiya elementlariga salbiy ta’sir etadigan issiq harorat, quruqhavo hamda kuchli quesh radiatsiyasi ta’sirini e’tiborga olish lozim. Loyihalash va qurilish ishlarining sifati ko‘p jihatdan ushbu muammoningqay darajada hal etilishiga bog‘liq. Temirbeton konstruksiyalarining ishiga harorat va namlikning ta’sirini hisobga olish masalasi maxsus tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘lik bo‘lib, qo‘shimcha sarf harajatlarni talab etadi.

Temirbeton konstruksiyalarini behovotir va uzoq muddat xizmat qilishi loyiha jaraenidagi hisoblarning to‘g‘ri bajarilishiga bog‘likdir.

Temirbeton konstruksiyalarga harorat va namlikning ta’siri, ularda kuchlanganlik-deformatsiya holatining murakkabligi, hisoblash algoritmi va loyihalash bo‘yicha juda ko‘p olimlar va muxandislar amaliy va nazariy izlanishlar olib borishgan.



### 3– rasm. Ustuning bikr choklari.

a – po‘lat kallakli; b – beton bo‘rtmali; 1 – ustuning bo‘ylama ishchi armaturasi; 2 – payvandlangan simto‘rlar; 3 – burchakli va listlardan yasaladigan po‘lat oboymalar; 4 – markazlashtiruvchi po‘lat plastinala ; 5 – uchlik sterjenlar; 6 – vannali payvand; 7 – chokkovagi.

Ishlab chiqilgan va taklif etilgan ko‘pgina usullar hisoblash algoritmini yaratishda ko‘pgina noqulaylik keltirib chiqargani sababli amalieta kam qo‘llanilmoqda. Shularni hisobga olgan holda dissertatsiya ishidagi izlanishlar maqsadi va vazifalari aniqlandi.

Zamonaviy ko‘p qavatli binolar turli xil elementlarni o‘z ichiga olganmurakkab fazoviy sistemalardan tashkil topadi. Bunday binolarni hisoblashda barcha konstruktiv xususiyatlari, ta’sir etuvchi yuklarning tavsifini e’tiborga olish qiyin masalalardan hisoblanadi. Tabiiyki, bunday hisoblarni bajarishda loyihachi eng avval EHM ga suyanadi.

### Asosiy adabiyotlar

1. Asatov, N., Tillayev, M., & Raxmonov, N. (2019). Parameters of heat treatment increased concrete strength at its watertightness. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 97, p. 02021). EDP Sciences.
2. Рахмонов, Н. Э. (2020). Проблемы разработки отечественного синтетического пенообразователя. *Academy*, (11 (62)), 93-95.
3. Rahmonov, N. E. (2022). Energiya samarador uylar qurilishini qishloq sharoitida ommalashtirish istiqbollari. *Science and Education*, 3(2), 169-174.
4. Асатов, Н. А., & Рахмонов, Н. Э. (2022). ПУТИ УМЕНЬШЕНИЯ КРАЕВОГО ЭФФЕКТА ПРИ РАСЧЕТЕ КОНИЧЕСКОГО КУПОЛА С УЧЕТОМ ВЛИЯНИЯ ПРЕДНАПРЯЖЕННОГО ОПОРНОГО КОНТУРА. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 260-263.
5. Sagatov, B., & Rakhmanov, N. (2019). Strength of reinforced concrete elements strengthened with carbon fiber external reinforcement. *Problems of Architecture and Construction*, 2(1), 48-51.



LOBACHEVSKY  
UNIVERSITY



Новосибирский  
государственный  
университет

\*настоящая наука



Новосибирский  
государственный  
технический университет  
**НЭТИ**

